

JEK LONDON QALAMIGA MANSUB "MARTIN IDEN" ASARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASI JARAYONIDAGI STILISTIK TRANSFORMATSIYA TAHLILI

Todjidinova Umida Urinboy qizi

Toshkent Davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lmish Jek Londonning " Martin Iden "asarining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasi jarayonidagi stilistik transformatik tahlil ko'rib chiqiladi va stilistik transformatsiyaga ham urg'u berib o'tiladi. Tarjima jarayonining muhim jihatlaridan biri asar haqida umumiy ma'lumotlar to'plash va ular bilan tanishib chiqish shuning uchun quyidagi maqolada asar va muallif haqida toxtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar. tarjima, leksika, transformatsiya, morfologiya, transkripsiya, so'zma-so'z, erkin tarjima, adekvat tarjima, tarjimon.

Kirish. "Martin Iden" romani buyuk yozuvchi Jek Londonning qalamiga mansub bo'lib, birinchi marta 1908–1909-yillarda The Pacific Monthly jurnalida chop etilgan, 1909-yilda esa Macmillan Company nashriyotida alohida kitob sifatida nashr etilgan. Roman asosan avtobiografikdir: Martin Iden va Jek Londonning o'xshash jihatlari juda ko'p. Ikkalasi ham jamiyatning quyi tabaqasidan chiqqan va faqat o'z kuchi bilan adabiyotda ulkan yutuqlarga erishgan. London yoshligida o'zini juda ko'p ishlarda sinab ko'rgan; u dengizchi, zavod ishchisi, kir yuvish shirkati ishchisi sifatidagi tajribasiga tayangan holda mohirona asarlar yozdi. Ruf obrazi esa Jek Londonning birinchi muhabbati Meybl Epplgarddan olingan..[1,2,3,4]

Martinning harakatlaridan, mehnatkashligi va irodasidan kitobxon yaxshigina o'rnak olishi mumkin. Masalan, u olti soatgina uyquni odat qiladi. Uxlab qolmaslik uchun hatto yotog'iga mix tirab chiqadi. Har bir daqiqasini qadrlaydi. O'rganishga, o'qishga bo'lgan ishtiyoqidan kishi zavqlanadi. Bir-ikki mag'lubiyat uning ruhini sindirolmaydi. Chunki u qachondir yutishiga, g'alaba qozonishiga ishonadi, umid qiladi. Aynan shu umid va ishonch uning olg'a intilishiga turtki bo'lib turadi. Asarda yana bir ajoyib fikr ilgari suriladi: Martin allaqanday mehmonxonaning kirxonasida kir yuvuvchi bo'lib ishlaydi. 16-17 soatlab davom etadigan ish uning sillasini quritib tashlaydi va istasa ham kitob o'qiyolmay qoladi. Tushunib yetadiki, agar inson uzukun jismoniy mehnat bilan mashg'ul bo'ladigan bo'lsa, bu borada me'yordan ohsa, uning hayvondan farqi qolmaydi. O'ta og'ir va ko'p jismoniy mehnat insonning insonligidan ayirib qo'yadi, odam o'ziga ma'naviy ozuqa ololmay qoladi. Inson tan uchun ozuqaga qanchalik muhtoj bo'lsa, ruh uchun ham shunchalik ozuqaga muhtoj.

Ruhiy ozuqa yig'ishga ketadigan energiyani jismoniy mehnatga sarf qilib yuborilsa, muvozanat buziladi va hayot rangsizlasha boshlaydi.

Martinning Rufga nisbatan tuyg'ulari samimiy edi. Shu bilan birgalikda Ruf ham Martinni chindan yoqtirardi. Ammo qizning olgan tarbiyasi, ijtimoiy holati va yoshlikdan miyasiga singdirilgan fikrlari uning muhabbati bemanfaat bo'lishiga to'sqinlik qilar edi. Bu narsalarni Martin keyinchalik tushunib yetadi. Turli san'at asarlari, yoki badiiy va ilmiy asarlardagi kamchiliklarni ko'rgan Martin tanqid qila boshlaydi. Ammo bu tanqidlarga Ruf e'tiroz bildiradi. Shunda Martin anglyadiki, Ruf va Rufning tabaqasidagi ko'plab insonlar shu paytgacha o'zlari yoxud jamiyatning o'sishi uchun emas, obro'-e'tibor, avomdan yuqoriroq turish uchun bilim olibdi. Shu sabab oliygohlarda o'qibdi. Ammo aslida o'zlarining shaxsiy fikrlari yo'q, hamma olqishlagan narsani olqishlashadi, tanqid qilingan narsani yutuqlariga-da ko'z yumib piypaydi. Bu xuddiki diplom uchun, "o'qigan" degan unvon uchun ta'lim olgandek gap. O'taketgan yuzakilik edi.[5,6,7,8]

Asosiy qism. Asar haqida so'z borar ekan, roman asosan avtobiografikdir: Martin Iden va Jek Londonning o'xshash jihatlari juda ko'p. Ikkalasi ham jamiyatning quyi tabaqasidan chiqqan va faqat o'z kuchi bilan adabiyotda ulkan yutuqlarga erishgan. London yoshligida o'zini juda ko'p ishlarda sinab ko'rgan; u dengizchi, zavod ishchisi, kir yuvish shirkati ishchisi sifatidagi tajribasiga tayangan holda mohirona asarlar yozdi. Ruf obrazi esa Jek Londonning birinchi muhabbati Meybl Epplgarddan olingan. Ushbu nodir asar hozirgi kungacha o'zbek kitobxonlari tomonidan sevib o'qilmoqda. Tarjima davomidan tarjimon adekvat va erkin tarjima usulidan foydalangan holda asarni tarjima qilgan. Tarjima jarayonida ko'p hollarda leksik transformatsiyalarga duch kelamiz. Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug'atlar ma'lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatdagi lug'atlarda so'z ma'nosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lug'ati qanchalik mukammal bo'lmasin, unda so'zlarning barcha ma'nolari yoki ma'no nozikliklarini qamrab olishning iloji yo'q, chunki lug'at ikki til tizimi unsurlari bilan ish ko'radi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, nutq mahsuli bo'lmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko'p ma'noli so'zning qaysi ma'nosi qo'llanilganligini kontekst asosida o'zi aniqlamog'i lozim. Tarjimada turli so'zma-so'z, g'aliz birikmalarni qo'llashdan qochish, uning o'rniga adabiy hamma tushunadigan, yorqin so'zlarni tarjima qilish uchun leksik transformatsiyalardan foydalaniladi. Stilistik transformatsiyalar tarjima nazariyasida so'zlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. [11,12,13]. Asardan stilistik transformatik birliklar uchun quyida misollarni ko'rib chiqamiz. It was a bright cold day in April, and the clocks were striking thirteen. Winston Smith, his chin nuzzled into his breast in an effort to escape the vile wind, slipped quickly through the glass doors of Victory Mansions, though not quickly enough to prevent a swirl of gritty dust

from entering along with him. (Chapter I Page 5) Tarjima : Oldinda kelayotgan yigit yassi kalit bilan eshikni ochdi. Uning orqasidan kelayotgan yigit ostanadan o'tishdan oldin apil-tapil kepkasini yulqib oldi. Uning egnidagi sodda, dag'al kiyimdan dengiz hidi anqib turardi; yigit kattokon zalga kirdi-yu, anqayib qoldi. U kepkasini qayerga qo'yishni bilmay uni buklab cho'ntagiga solib qo'ymoqchi bo'lgan edi, sherigi qo'lidan olib qo'ydi. Buni u shunday oson shunday tabiiy harakt bilan bajardi-ki, yigitning ko'gli tog'dek ko'tarilib ketdi. Tahlil: Stilistik transformatsiya. Imaginary ushbu gapda qo'llangan ya'ni asardagi persanajni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirishga qaratilgan vosita. He walked at the other's heels with a swing to his shoulders, and his legs spread unwittingly, as if the level floors were tilting up and sinking down to the heave and lunge of the sea. (Chapter 1 Page 6) . Tarjima: Oyoq ostidagi pol yigitga go'yo dengiz to'lqinidek dam pastga dam tepaga ko'tarilayotgan palubaday tuyulganidan u hamrohi orqasidan oyoqlarini kerib har qadamda chayqalib yurib borardi. Tahlil: Stilistik transformatsiya. Ushbu gapda metaphor ya'ni o'xshatish vositasi qo'llangan. He did not know what to do with those arms and hands, and when, to his excited vision, one arm seemed liable to brush against the books on the table, he lurched away like a frightened horse, barely missing the piano stool (Chapter 1 Page 6). Tarjima: Kitob uyulib yotgan stol bilan royal orasidan olti kishi bemalol o'tishi mumkin edi, lekin u bu oraliqdan yuragini hovuchlab o'tdi. Uning beso'naqay qollari shalvirab turar, ularni qayerga qoyishni bilolmasdi. Tahlili: Stilistik transformatsiya. Quyidagi gapda simila ya'ni o'xshatishning bir turi qo'llangan. Tarjima jarayonida ushbu jumlaning uzbek tilidagi ekvivalenti "Yuragini hovuchlab o'tmoq" iborasi qo'llangan. He was surrounded by the unknown, apprehensive of what might happen, ignorant of what he should do, aware that he walked and bore himself awkwardly, fearful that every attribute and power of him was similarly afflicted He was keenly sensitive, hopelessly self-conscious, and the amused glance that the other stole privily at him over the top of the letter burned into him like a dagger-thrust. (Chapter 1 Page 6). Tatrjima: U peshanasini yana artib, xonaga diqqat bilan razm solib chiqdi, lekin uning ko'zlari qopqonga tushishdan xavfsirayotgan yowoyi hayvonning ko'zlaridek taka-puka edi, u notanish buyumlar qurshovida qolgan, bu yerda yuz berishi kerak bolgan voqealardan hayiqar, nima qilishini bilmasdi, u o'zining beso'naqayligini, yurish-turishi va xatti-harakatlari ham beso'naqay ekanligini tushunardi. Tahlil :Stilistik transformatsiya.

Imaginary ushbu gapda qo'llangan ya'ni asardagi persanajni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalantirishga qaratilgan vosita. He glanced around at his friend reading the letter and saw the books on the table. Into his eyes leaped a wistfulness and a yearning as promptly as the yearning leaps into the eyes of a starving man at sight of food. (Chapter 1 Page 7) Tarjima: U xat o'qiyotgan do'stiga o'girilib qaradi-yu, stol ustida yotgan kitoblarga ko'zi tushdi. Uning ko'zlari xuddi ovqat ko'rib qolgan och

odamniday chaqnaab ketdi. Tahlil: Stilistik transformatsiya . Quyidagi gapda o'xshatishning bir turi , simila qo'llangan. Ushbu o'xshatish as va like so'zlari bilan qo'llanadi va bu yerda as shakli qo'llangan

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima odatda oddiy so'zlar yig'indisi sifatida ko'rinishi mumkin. Biroq, uning zamirida o'quvchi uchun bir qarashda kishi anglashi qiyin bo'lgan murakkab jarayon yotadi. Qolaversa, tarjimomni ko'proq o'zi ustida ishlash, qayta-qayta tahlil qilib, so'zning nozik jihatlarini taqdim etishi uchun leksik, grammatik va stilistik bo'yoqdorlik bilan bog'liq muammolarni, yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Buning uchun tarjimon, biz yuqorida sanab o'tgan tarjima muammolari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Reference:

1. Khakimnazarov, Adham Komil Ugli, Anvarjon Orif Ugli Namozov, and Oybek Rustamovich Achilov. "COUPLING AS A STYLISTIC DEVICE IN UZBEK AND IN ENGLISH POEM." *Academic research in educational sciences* 3.10 (2022): 587-590.
2. Rustamovich A. O. et al. "ROBIN SHARMA QALAMIGA MANSUB" O'LSANG KIM YIG'LAYDI" ASARINING TARJIMASI JARAYONIDAGI LEKSIK TRANSFORMATIK TAHLILI //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022. – 2023. – T. 2. – №. 18. – С. 83-86.
3. Achilov, Oybek Rustamovich, and Robiya Rustamjon Qizi Inog'Omjonova. "THE ROLE OF LEXICAL TRANSFORMATION IN THE TRANSLATION PROCESS." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.4 (2023): 288-294.
4. Achilov, Oybek. "JORJ ORUELL QALAMIGA MANSUB" 1984" ASARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA TAHLILI, MORFOLOGIK VA LEKSIK FARQLIKLAR." *Журнал иностранных языков и лингвистики* 5.5 (2023).
5. Achilov, Oybek Rustamovich, and Robiya Rustamjon Qizi Inog'Omjonova. "THE ROLE OF LEXICAL TRANSFORMATION IN THE TRANSLATION PROCESS." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.4 (2023): 288-294.
6. Ismatullaeva, Iroda Izatullaevna. "CONCEPT AS THE BASIC TERM OF THE COGNITIVE LINGUISTICS." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.9 (2022): 533-538.
7. Ismatullaeva, Iroda Izatullaevna, and Samandar Mirzadjonov. "ACTUAL PROBLEMS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE IN TECHNICAL UNIVERSITIES." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.1 (2023): 108-112.